

2025-yil 28-avgust

## "O'zkimyosanoat kubogi" o'z egalariga topshirildi!



Sport — sog'lom hayot asosi. Jismoniy faollik nafaqat salomatlikni mustahkamlaydi, balki jamoaviy ruhni oshiradi, yaxlitlik va birdamlikni shakllantiradi. "O'zkimyosanoat kubogi" chempionati aynan shu maqsadda tashkil etildi.

Ta'kidlash joiz, musobaqaning har bir kuni shiddatli va qiziqarli o'yinlarga, murosasiz bahslarga boy bo'ldi. Bugun RKTUning Toshkent shahridagi filialida chempionat g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Unda boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari Yevgeniy Korjikov ishtirok etib, g'olib va sovrindorlarni tabrikladi, musobaqalarning jamoaviylikni mustahkamlash hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etishdagi ahamiyatini alohida ta'kidladi.

G'olib jamoalar va faol ishtirokchilar esdalik sovg'alari, diplomlar va pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.









**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-kubogi-o-z-egalariga-topshirildi>